

YOQILG'I OMBORINI IJARAGA BERISH TO'G'RISIDA SHARTNOMA № 1

“05” 01 2022 yil

Sharg'un shahri

O'zbekiston Respublikasining “ijara to'g'risidagi” hamda “ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunlariga muvofiq, kelgusida “IJARAGA BERUVChI” deb ataluvchi nizom asosida “Sharg'unko'mir” AJ nomidan ish yurituvchi bosh direktori X.N.Abdullayev bir tomondan, va kelgusida “IJARAGA OLUVChI” deb ataluvchi “Termiz yonilg'i ko'mir ombori xo'jaligi” ikkinchi tomondan ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi R.U.Tulboyev o'rtasida tuzildi. Taraflar quyidagilar haqida shartnoma tuzdilar:

1.Shartnomaning predmeti

- 1.1.“IJARAGA BERUVChI” mazkur ijara shatnomasiga asosan “IJARAGA OLUVChI”ga jamiyat tasarrufidagi 912 kv.m bo'lgan yoqilg'i saqlash omborini 01.01.2022 yildan 31.12.2022 yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga beradi.
- 1.2. “IJARAGA OLUVChI” yoqilg'i saqlash omborinidan yoqilg'ini qabul qilish va yoqilg'i tarqatish maqsadida foydalanishi shart.

2. Ijara haqining miqdori va to'lov muddatlari

- 2.1.Ijara haqining miqdori ilovada ko'rsatilgan №1-sonli kalkulyatsiyaga asosan 1 oyda 6 554 101 (olti million besh yuz ellik to'rt ming bir yuz bir) so'mni tashkil qiladi.
- 2.2. To'lov muddati oldindan xar oyning 5-sanasisiga qadar amalga oshiriladi.
- 2.3. Ijara haqi stavkasi binodan foydalanish (ekspluatatsiya) xarajatlari, kommunal xizmatlar haqi, yer solig'i va qo'shimcha qiymat solig'i kiradi.

3. Taraflarning huquq va majburiyatlari

“IJARAGA BERUVChI” ning huquqlari:

- 3.1.Ijaraga bergan yoqilg'i saqlash omborini maydonlarning “IJARAGA OLUVChI” tomonidan maqsadga muvofiq (shatnomaning 1.2. bandi) foydalanilayotganini, uni ozoda saqlanishi, yong'inga qarshi va sanitariya qoidalariga amal qilinishini ko'zdan kechirib borish.
- 3.2. Ijara haqini tegishli muddatlarda to'lanishini talab qilish, hisob kitoblarni solishtirish dalolatnomalarini “IJARAGA OLUVChI” bilan birgalikda tuzish.
- 3.3. Shartnoma shartlarini o'zaro o'zgartirish va bekor qilish mumkin.

“IJARAGA BERUVChI”ning majburiyatlari:

- 3.4.Ijaraga berilgan yoqilg'i saqlash ombori xududni “IJARAGA BERUVChI”ning buyurtmasiga binoan “IJARAGA OLUVChI” hisobidan ta'mirlash.
- 3.5.“IJARAGA BERUVChI” tomonidan oldindan to'lanadigan to'lovlar 2.2 band bo'yicha amalga oshirilgan holda 5 kun ichida “IJARAGA OLUVChI”ga topshirilishi shart.

3.6. Agar binoning egasi tomonidan binoda to'liq ta'mirlash ishlarini amalga oshirish lozim bo'lsa "IJARAGA OLUVChI"ni 15 kun oldin ogohlantirishi zarur.

"IJARAGA OLUVChI" ning huquqlari:

3.7. Ijara ob'ektidan ushbu shartnomada belgilangan muddatda va tegishli maqsadga muvofiq foydalanish.

3.8. Shartnomani bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa xujjatlarni talab qilish va olish.

"IJARAGA OLUVChI" ning majburiyatlari:

3.9. Ijara ob'ektidan maqsadga muvofiq foydalanish.

3.10. Binodan, asbob uskunalar va inventardan tegishli ravishda foydalanish.

3.11. Bino va uning xududini ozoda saqlashi, barcha sanitar, yong'inga qarshi va elektr energiyadan foydalanish qoidalariga amal qilish.

3.12. Ijara ob'ektini xavfsizligini ta'minlash.

3.13. Ijara shartnomrtnomasi muddati tugagach, shartnomaning amal qilish muddati ("Ijara beruvchi" tomonidan shartnoma muddatini uzaytirilishiga rad javobi berilganligi sababli) uzaytirilmagan hollarda yoki shartnoma qonunchilikda belgilangan tartibda, muddatidan oldin bekor qilinganda "IJARAGA OLUVChI" 5 kunlik muddat ichida binoni "IJARAGA BERUVChI"ga to'liq ravishda qaytarilishi shart.

3.14. "IJARAGA OLUVChI", "IJARAGA BERUVChI"ning yozma roziligisiz ijara ob'ekti bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga berish huquqiga ega emas.

3.15. Ijara shartnomasining muddati tugaganda yoki qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinganda "IJARAGA OLUVChI" ijara haqini amaldagi tariflar asosida bino bo'shatilgan kungacha tulaydi.

4. Majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik

4.1. Taraflar uchun ushbu shartnomada belgilanmagan javobgarlik masalasi O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi" va "Xo'jalik yurituvchi sub'ktlarning shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

5. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish asoslari.

5.1. Ushbu shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

5.2. Shartnoma quyidagi hollarda sud tartibida bir tomonlama o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

- Egallangan maydonlardan shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan maqsadlarga nomuvofiq ravishda foydalanish hollari aniqlanganda.

- Bino va xonalar yoki yer maydoni yong'inga qarshi va sanitariya qoidalariga zid ravishda foydalanilayotganligi, hamda xavfsizlikni ta'minlash choralari ko'rilmaganligi aniqlansa va bu xolatlar tegishli xizmatlar tomonidan tuzilgan dalolatnoma bilan tasdiqlanganda yoxud Qonunda ko'rsatilgan boshqa xollarda.

5.3. Sud qarori asosida.

